
FUQAROLIK SUDLARIDA BEPUL ADVOKAT KIMLARGA BERILADI?



Davlat hisobidan yuridik yordam bu- to'liq yoki qisman davlat hisobidan ko'rsatiladigan, jismoniy shaxslarning huquqlarini, erkinliklarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan malakali yuridik yordam hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatishi uchun advokat faqat jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud tomonidan jalb etilar edi. Endilikda qonunchilikka bir qator o'zgartirishlar kiritilib, fuqarolik va ma'muriy ishlar bo'yicha ham bepul advokatlar qatnashish joriy qilindi. Bu 2023 yil 16 iyunda qabul qilinib, rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach kuchga kirishi belgilangan O'zbekiston Respublikasining "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi qonun bilan mustaxkamlandi.

Ushbu Qonunning 9-moddasiga ko'ra, fuqarolik ishlari bo'yicha da'vogarlar yoki javobgarlar belgilangan tartibda davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yildi. Ushbu Qonunning 11-moddasiga asosan faqat ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash hamda to'lash to'g'risidagi, ishga tiklash haqidagi, ish haqini undirish to'g'risidagi, alimentlarni undirish haqidagi, uyga kiritish, turar joydan foydalanish huquqini yo'qotgan deb topish va ko'chirish to'g'risidagi, mehnatda mayib bo'lganlik yoki sog'liqning boshqacha tarzda shikastlanganligi, shuningdek boquvchining vafot etganligi tufayli yetkazilgan zararining o'rnini qoplash haqidagi, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining [991-moddasida](#) nazarda tutilgan tartibda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlarning, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlarining va sudning qonunga xilof harakatlari tufayli yetkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi ishlar yuzasidan davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatiladi.

Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish quyidagi hollarda rad etiladi agar:

davlat hisobidan yuridik yordam olish to'g'risidagi ariza yoki davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish haqidagi so'rov yuqoridagi Qonun talablariga muvofiq bo'lmaganda;

davlat hisobidan yuridik yordam olish to'g'risidagi ariza jismoniy shaxsning vakili tomonidan uning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar yoki qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda, jismoniy shaxs va uning vakili o'rtasidagi qarindoshlik munosabatlarini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilmasdan berilganda;

psixiatriya yordami ko'rsatuvchi psixiatriya muassasasining jismoniy shaxsga psixiatriya yordami ko'rsatilayotganligini tasdiqlovchi ma'lumotnomasi mavjud bo'lmaganda;

xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi buzilganligi bilan bog'liq ish sudda ko'rib chiqilayotganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma mavjud bo'lmaganda;

jismoniy shaxs (uning vakili) tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda yolg'on yoki noto'g'ri axborot mavjud bo'lganda;

jismoniy shaxsga ilgari fuqarolik ishlari yoki ma'muriy ishlar bo'yicha ayni o'sha taraflar o'rtasidagi nizo yuzasidan ayni o'sha predmet to'g'risidagi va ayni o'sha asoslar bo'yicha huquqiy himoyaning barcha vositalari qo'llanilgan holda davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatilgan bo'lsa (bundan yangi ochilgan holatlar bo'yicha qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini qayta ko'rib chiqish hollari mustasno).

Xulosa qilib aytganda bepul yuridik yordam ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirilishi va shaffoflashtirilishi fuqarolarga odil sudlovga erishish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Farg'ona shahar adliya bo'limi bosh maslahatchisi, 3-darajari yurist I.Raxmonov